

INSON MA'NAVIYATINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.

Sevarova Maftuna

*Termiz Davlat pedagogika institute Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson ma'naviyatini shakllantiruvchi ba'zi omillar haqida fikr yuritiladi. Ma'naviyat inson ong-u tafakkuridan mustahkam o'rin egallashi uchun zarur bo'lgan tushunchalarga izoh beriladi.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviyat, ma'rifat, xudbinlik, loqaydlik, salohiyat, qalb, ong*

Ma'naviyat-insonning ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u kishilarning ilmiy, axloqiy, badiiy, falsafiy, huquqiy va diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, inson ma'naviyatining ichki va tashqi olami mavjud. Tashqi olamiga uning ko'rinishi, kiyinish madaniyati va xatti-harakati kiradi. Ichki olamiga esa insonning fikrlashi, orzu-istaklari, yashashdan maqsadi, his-tuyg'ulari va hokazolar kiradi. Insonning aynan mana shu ichki olami ma'naviyatdir.

Mamlakatimizda inson ma'naviy olami, uning ma'naviy kamoloti masalasi davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Zero, «ommaviy madaniyat ko'inishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm va missionerlik kabi balo qazolardan yoshlarimizni asrash»[1:89] eng muhim vazifadir.

Inson yegulik bilan jismoniy quvvat olsa, ma'naviyat unga ruhiy ozuqa sifatida kuch-qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat madaniyat va ma'rifat tushunchalari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Insonlarda ma'naviyat o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Unga erishish uchun doimiy o'qish, o'rganish, tajriba orttirish lozim. Ma'naviyatli inson hayotda yashashdan maqsadi nimaligini aniq biladi, hayotini mazmunli o'tkazish yo'llarini izlab topadi, har bir masalaga adolat nuqtayi nazaridan yondashadi.

Buning uchun esa, avvalo, inson ma'naviyatini yuksaltirish kerak. Ma'naviyat - inson tashqi va ichki go'zalligini baholovchi va belgilovchi mutlaqo muntazam mezondir. Ma'naviyat kelajagimiz tanti tirtigagi, sirli sarhadidir.[3:327]

Jamiyatdagi unday kishilar yolg'on-u rost, halol va harom, or-nomus, vijdon nima-bularning barchasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda barcha yomonlikka undovchi xatti-harakatlarini voz kechib, hamisha ezgulikka chaqiradigan amallarni bajaradi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyatda ma'naviyatli, salohiyatli insonlar qanchalik ko'p bo'lsa, ham millat, ham jamiyat shunchalik ravnaq topadi. Zero, «Inson qalbidagi ma'naviyat qanchalik yuksak bo'lsa, johillik, yovuzlik, xudbinlik, loqaydlik kabi jamiyatga xavf soladigan illatlar shunchalik chekinadi va ular o'rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, bunyodkorlik, tuyg'ulari qaror topadi».[4: 174]

Vatanni sevish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash inson ma'naviyatini belgilab beruvchi omillardan biri sanaladi. Aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvor

jamiyat ma'naviyatli jamiyatdir. Xususan, shunday jamiyatlarda qobiliyat, yuksak iste'dod egalari shu jamiyat va millatning yuzi, obro'-e'tibori hisoblanadi. Bunday jamiyatda esa xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo'lib, insonlarga nomunosib turli illatlar barham topadi.

O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida: "Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi", degan edi. Shu sababli ham yurtimizda ma'naviyatini yuksaltirish, xalqni ma'naviyatli qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Hozirgi kunda qanday shiddatli hamda notinch zamonda yashayotganligimizni inobatga olgan holda, tinch va osoyishta hayot kechirishimiz uchun kurashib, zaruriyat tug'ilganda chin dildan fidoyilik ko'rsatib, hamisha ma'nan uyg'oq holda yashashimiz, eng katta boyligimiz bo'lmish yurtimizda yashayotgan millatlar va xalqimiz o'rtasidagi ahillik, hamjihatlikni yanada mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlarning ma'no-mazmunini tushunib yetishimiz lozimdir.

Biz tariximizning qaysi bir davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, xalqimiz dahosining o'lmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin. Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boyluk bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.[2:95-96]

Yangidan o'sib kelayotgan yosh "nihol"larda millatimizga, Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini shakllantirib borish muhim o'rin tutadi. Buni esa eng avvalo, oilada va ta'lim dargohlarida berilayotgan ta'lim va tarbiyaga e'tibor qaratib bilishimiz mumkin. Bugun mana shu masalalarni amalda bajarish uchun muhtaram Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan bir qator qonun hujjatlari imzolandi va qaror, farmoyishlar qabul qilindi. Mazkur davlat dasturlari ijrosini ta'minlash yuzasidan tegishli davlat tashkilotchilari tomonidan tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

1-Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi xususiyatlarga ega millatning xalqida yuksalish jarayoni tezroq kechishi haqida aytib o'tgan edilar:

- o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanib, natijasini ko'radigan;
- atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildiradigan;
- o'z haq-huquqini biladigan va u uchun kurashadigan;
- shaxsiy manfaatlarini millat va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib, faoliyat yuritadigan.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda atrof-muhit, oila va do'stlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Negaki, bola tug'ilgan kundan boshlab, oila muhitida yashaydi va shu oilaga xos qadriyatlar, an'analar hamda urf-odatlar uni shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Oila-insonning butun umri davomida oladigan ma'rifat va hayot saboqlari uchun asos vazifasini o'tovchi maktabdir. Oiladagi muhit sog'lom bo'lgandagina, u yerda ulg'ayotgan avlod ham har tomonlama sog'lom bo'lib voyaga yetadi. Yoshlar tarbiyasi, xususan, aqlan sog'lom, jismonan baquvvat, zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lgan avlodni voyaga yetkazishda oila ma'naviyatining tutgan o'rni beqiyosdir.

Hech kimga sir emaski, insonning qalbi va ongini egallash, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan hozirgi davrda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina ona zaminimizda yot ta'sirlardan saqlashga, yurtimizni har tomonlama yuksaltirishga qodir bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом еттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

2. Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.:“Маънавият”, 2008.

3. М.Шарифхужаев, 3.Давронов Маънавият асослари. Toshkent: Moliya instituti. 2005.

4. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Т.: Фафур Фулом, 2013.